



BACHADON BO'YNI SARATONIDA MRT AHAMIYATI

Nishanova Yulduz Xatamovna

Sattorova Farangiz

Toshkent davlat tibbiyot universitet

Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19082270>

Dolzarbli: Bachadon bo'yni saratoni odatda 35-55yoshli ayollar orasida ko'proq uchraydi [1,2]. Bu saratonning asosiy etiologik omili yuqori onkogen xavfga ega bo'lgan inson papilloma virusi (HPV) hisoblanadi [1,4]. Kasallik limfogen yo'l bilan avvalo obturator hamda ichki va tashqi yonbosh (iliakal) limfa tugunlariga, keyinchalik umumiy yonbosh va paraaortal tugunlarga metastaz berishi mumkin [2,3]. Bachadon bo'yni saratoni tarqalishi, bosqichi va limfa tugunlarining zararlanishi va davolash taktikasini hamda dinamikada kuzatish imkonini beradigan usullardan biri - MRT [2,4]. Shu sababli MRT birlamchi o'choq va regional metastazlarni erta aniqlashda muhim diagnostik ahamiyatga ega [3,2].

Maqsad: Bachadon bo'yni saratonini bosqichlashda MRT belgilarini baholash.

Material va usullar: Tadqiqot 2023–2025-yillarda bachadon bo'yni saratoniga shubha qilingan 87 nafar ayol(31-59 yosh, o'rtacha 46 yosh)da o'tkazildi. Barcha bemorlarda kompleks diagnostik yondashuv qo'llanildi. Dastlab UTT orqali o'smalarning mavjudligi, o'lchami va strukturaviy o'zgarishlari baholandi. Keyingi bosqichda kichik chanoq a'zolarida MRT bajarilib, stromal invaziya chuqurligi, parametrial tarqalish hamda regional limfa tugunlari holati aniqlashtirildi. Qo'shimcha ravishda qonda onkomarkyor ko'rsatkichlari aniqlanib, ularning tasviriy diagnostika natijalari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar gistologik xulosa bilan solishtirib baholandi.

Natija: 87nafar bemorning dastlab barchasida UTT o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, 49 nafar (56,3%) bemorda bachadon bo'yni sohasida hajmli o'sma va 19 nafarida (38,7%) parametrial infiltrativ o'zgarishlar aniqlandi. 12 nafar (13,8%) bemorda servikal kanal qalinlashuvi va notekis konturlar bilan kechuvchi displaziyaga shubhali belgilar kuzatildi. 9 nafar (10,3%) bemorda diffuz adenomioz qayd etildi. 17 nafar (19,5%) bemorda esa patologik o'zgarishlar aniqlanmadi. Keyingi bosqichda barcha bemorlarga kichik chanoq a'zolarining MRT tekshiruvi bajarildi. MRT natijalari UTT ga nisbatan aniqroq morfologik tafsilotlarni ko'rsatdi va quyidagilar aniqlandi: 38 nafar (43,7%) bemorda invaziv bachadon bo'yni saratoni tasdiqlandi. 14 nafar (16,1%) bemorda karsinoma in situ aniqlanib, MRT da stromal qatlam saqlangan holda, epiteliy doirasida cheklangan patologik signal o'zgarishlari kuzatildi, parametrial tarqalish belgisi





aniqlanmadi. 11 nafar (17,2%) bemorda diffuz adenomioz kuzatildi. Shuningdek, MRT tekshiruvlari asosida invaziv saraton aniqlangan bemorlarning 22 nafarida (56,3%) stromal invaziya $>1/2$ chuqurlikda, 16 nafarida (42,1%) parametrial infiltratsiya, 11 nafarida (28,9%) esa regional limfa tugunlarining kattalashuvi va metastatik zararlanishiga xos belgilar aniqlandi. UTT bilan solishtirilganda MRT 19 nafar bemorda kasallik bosqichini aniqlashtirdi hamda 8 nafar holatda yomon sifatli jarayonni inkor etib, noto'g'ri musbat UTT natijalarini bartaraf etdi. Olingan natijalar gistologik tekshiruv bilan solishtirilganda MRTning sezgirligi va aniqligi yuqori ekanligi tasdiqlandi.

Xulosa: MRT bachadon bo'yni saratonini erta aniqlash va bosqichlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega. UTT birlamchi skrining usuli bo'lsa, MRT o'smalarning tarqalish darajasini aniqlashda aniqroq natija berdi. Tadqiqot natijalari bachadon bo'yni o'smalarini tashxislashda MRT usulini qo'llash maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адамян Л.В., Каприн А.Д. Бачадон бўйни саратонини ташхислаш ва босқичлашда МРТнинг аҳамияти. – Москва, 2020. <https://aig-journal.ru/articles/Vozmojnosti-sovremennyh-metodik-luchevoi-diagnostiki-v-optimizacii-ocenki-effektivnosti-lecheniya-mestnorasprostranennogo-raka-sheiki-matki.html>
2. Ашрафян Л.А., Новикова Е.Г. Бачадон бўйни саратони: замонавий ташхис ва даволаш усуллари. – Москва, 2019. <https://journaldoctor.ru/upload/iblock/34e/8.pdf>
3. Саидова М.И., Тўраева Н.Б. Кичик чаноқ аъзолари ўсмаларида магнит-резонанс томографияси. – Тошкент, 2021. <https://inlibrary.uz/index.php/pediatrics/article/view/27164>
4. Қодиров А.А., Раҳимова Д.Ш. Онкогинекологияда нур диагностика усуллари. – Тошкент, 2022. <https://www.sammu.uz/ru/issues/9002/articles>

